

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pontiki, M., et al. (2014). *SemEval-2014 Task 4: Aspect Based Sentiment Analysis*. COLING. pp. 27–35.
2. Pontiki, M., et al. (2016). *SemEval-2016 Task 5: Aspect Based Sentiment Analysis*. ACL. pp. 19–30.
3. Zhang, L., Wang, S., Liu, B. (2018). *Deep learning for sentiment analysis: A survey*. Wiley Interdisciplinary Reviews: Data Mining and Knowledge Discovery, 8(4).
4. Feng, S., Wang, B., Yang, Z., & Ouyang, J. (2022). Aspect-based sentiment analysis with attention-assisted graph and variational sentence representation. *Knowledge-based systems*, 258, 109975.
5. Jazuli, A., Widowati, & Kusumaningrum, R. (2024). Optimizing aspect-based sentiment analysis using BERT for comprehensive analysis of Indonesian student feedback. *Applied Sciences*, 15(1), 172.
6. Hua, Y. C., Denny, P., Wicker, J., & Taskova, K. (2024). A systematic review of aspect-based sentiment analysis: domains, methods, and trends. *Artificial Intelligence Review*, 57(11), 296.
7. Kontonatsios, G., Clive, J., Harrison, G., Metcalfe, T., Sliwiak, P., Tahir, H., & Ghose, A. (2023). FABSA: An aspect-based sentiment analysis dataset of user reviews. *Neurocomputing*, 562, 126867.
8. Kuriyozov, E., Matlatipov, S., Alonso, M. A., Gómez-Rodríguez, C. (2019). *Construction and evaluation of sentiment datasets for low-resource languages: The case of Uzbek*. In: **Language and Technology Conference (LTC 2019)**, Springer, Cham, pp. 232–243.
9. Matlatipov, S., Rahimboeva, H., Rajabov, J., & Kuriyozov, E. (2022). Uzbek sentiment analysis based on local restaurant reviews. *arXiv preprint arXiv:2205.15930*.
10. Mengliev, D. B., Akhmedov, E. Y., Barakhnin, V. B., Hakimov, Z. A., & Alloyorov, O. M. (2023, November). Utilizing lexicographic resources for sentiment classification in Uzbek language. In *2023 IEEE XVI International Scientific and Technical Conference Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE)* (pp. 1720-1724). IEEE.
11. Elov, B., & Xusainova, Z. (2025). SENTIMENT TAHLILIDA SO ‘Z TURKUMLARINING ROLI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TA’LIM JARAYONINI LOYIHALASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Bayzakova Maftuna Abulqosim qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti 2- kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tarbiyachi shaxsiga faqat bilim va amaliy ko‘nikmalar egasi sifatida emas, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qila oladigan, rivojlantiruvchi muhitni oldindan loyihalaydigan, kasbiy o‘sishga intiladigan mutaxassis sifatida yondashishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan akmeologik yondashuv bo‘lajak tarbiyachining shaxsiy va kasbiy kamolotini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda akmeologik yondashuvning mazmuni,

uning pedagogik mohiyati, ta’lim jarayonini loyihalash ko’nikmalari bilan uzviy bog’liqligi hamda mazkur ko’nikmalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar yoritilgan. Natijada bo’lajak tarbiyachilarda loyihalash ko’nikmalarini rivojlantirish faqat metodik tayyorgarlik masalasi emas, balki refleksiya, kasbiy motivatsiya, o’zini rivojlantirish va ijodiy faoliyatni taqozo etuvchi integral jarayon ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so’zlar: akmeologik yondashuv, bo’lajak tarbiyachi, ta’lim jarayonini loyihalash, kasbiy kompetensiya, refleksiya, pedagogik faoliyat, rivojlantiruvchi muhit, kasbiy o’sish, pedagogik dizayn, o’zini rivojlantirish.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida yuz berayotgan sifat o’zgarishlari tarbiyachi faoliyatini yangi mazmun bilan boyitmoqda. Endilikda tarbiyachidan bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy-ta’limiy jarayonni rejalashtirish, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, natijani oldindan ko’ra bilish va pedagogik faoliyatni ijodiy loyihalash talab etiladi. Shu bois bo’lajak tarbiyachilarni oliy ta’lim jarayonida tayyorlashda ularning ta’lim jarayonini loyihalash ko’nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Mazkur vazifa an’anaviy bilim berish modeli doirasida to’liq hal etilmaydi, chunki loyihalash ko’nikmasi faqat tayyor algoritmlarni o’zlashtirish bilan emas, balki vaziyatni anglash, maqsadni belgilash, resurslarni tanlash, natijani prognoz qilish va o’z faoliyatini tahlil qilish bilan chambarchas bog’liq.

Akmeologik yondashuv aynan ana shu murakkab jarayonni tushuntirishga imkon beradigan nazariy platformadir. Akmeologiya shaxsning eng yuqori rivojlanish bosqichlariga erishish qonuniyatlarini o’rganuvchi fan sifatida insonning kasbiy yetukligi, o’zini namoyon qilishi va o’zini takomillashtirishiga e’tibor qaratadi. Pedagogik ta’lim kontekstida akmeologik yondashuv bo’lajak tarbiyachining ichki imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish, kasbiy maqsadlarini anglash, o’z faoliyatini refleksiv tahlil qilish va pedagogik jarayonni ongli ravishda loyihalash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, ta’lim jarayonini loyihalash ko’nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslarini akmeologik yondashuv bilan bog’liq holda tahlil qilish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifadir.

Mazkur tezisni tayyorlashda tizimli yondashuv, akmeologik yondashuv, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim konsepsiyasi hamda kompetensiyaviy paradigma asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, akmeologiya va maktabgacha ta’lim metodikasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi, mavjud nazariy qarashlar qiyoslandi va umumlashtirildi. Shuningdek, ta’lim jarayonini loyihalash tushunchasi mazmunan pedagogik rejalashtirish, oldindan modellashtirish, natijani prognoz qilish va rivojlantiruvchi muhitni tizimli tashkil etish bilan bog’liq holda sharhlendi. Akmeologik yondashuvning bo’lajak tarbiyachilar tayyorgarligiga tatbiqi ularning kasbiy shakllanishi, ichki motivatsiyasi, refleksiv faoliyati va o’zini rivojlantirish ehtiyoji bilan aloqador tarzda tahlil etildi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, bo’lajak tarbiyachilarda ta’lim jarayonini loyihalash ko’nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari bir necha o’zaro bog’liq kategoriyalar orqali ochiladi. Avvalo, “loyihalash” pedagogik faoliyatda maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar o’rtasidagi mantiqiy bog’liqlikni oldindan ko’ra bilish va ularni maqsadga muvofiq tarzda tizimlashtirishni anglatadi. Maktabgacha ta’limda bu jarayon ayniqsa murakkab bo’lib, unda bolaning yosh xususiyati, qiziqishi, ehtiyoji, rivojlanish darajasi va ijtimoiy-emotsional holati hisobga olinadi. Shu sababli bo’lajak tarbiyachi loyihalashni oddiy dars ishlanmasi tuzish sifatida emas, balki pedagogik jarayonni ko’p omilli tizim sifatida modellashtirish tarzida tushunishi zarur.

Akmeologik yondashuv mazkur ko’nikmaning shakllanishiga yangi mazmun beradi. Chunki bu yondashuvda talaba shunchaki ijrochi emas, balki o’z kasbiy o’sish yo’lini ongli ravishda quruvchi subyekt sifatida talqin etiladi. Bo’lajak tarbiyachining ta’lim jarayonini

loyihalashga tayyorligi uning kasbiy idealni anglashidan, pedagogik qadriyatlarni qabul qilishidan, o‘z faoliyati natijalarini oldindan tasavvur qila olishidan va ularga erishish yo‘llarini mustaqil tanlay olishidan boshlanadi. Demak, loyihalash ko‘nikmasi akmeologik nuqtai nazardan shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslarida refleksiya alohida o‘rin tutadi. Refleksiv faoliyat bo‘lajak tarbiyachiga o‘z pedagogik harakatlarini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, kelajak faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi. Akmeologik yondashuv refleksiyani kasbiy kamolotning ichki omili sifatida ko‘radi. Agar talaba ta’lim jarayonini loyihalash jarayonida o‘z qarorlarining sabab va natijalarini anglay olsa, u asta-sekin ijodiy va mas’uliyatli pedagogga aylanadi. Shu ma’noda loyihalash ko‘nikmalarining shakllanishi faqat bilim va texnologiyalarni o‘zlashtirishga emas, balki o‘zini boshqarish va o‘zini baholash qobiliyatiga ham bog‘liq.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kasbiy motivatsiya muhim omil hisoblanadi. Talaba maktabgacha ta’lim jarayonini loyihalash zaruratini chuqur his qilganida, u o‘z faoliyatiga ijodiy yondashadi, standart sxemalar bilan cheklanib qolmaydi va har bir pedagogik vaziyatga individual yechim topishga intiladi. Bunday motivatsiya esa ta’lim jarayonining maqsadli tashkil etilishi, pedagogik vazifalarning hayotiyliigi va amaliyot bilan integratsiyasi orqali mustahkamlanadi. Akmeologik yondashuv aynan ichki ehtiyoj, kasbiy o‘rishga intilish va pedagogik muvaffaqiyatga erishish istagini rag‘batlantiradi.

Shuningdek, ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarining nazariy asoslari kompetensiyaviy yondashuv bilan ham uzviy bog‘liq. Chunki loyihalash jarayonida bo‘lajak tarbiyachi analitik fikrlash, kommunikativ faollik, axborot bilan ishlash, metod tanlash, kreativ yechim topish va natijani baholash singari bir qator kompetensiyalarni uyg‘unlashtiradi. Akmeologik yondashuv ushbu kompetensiyalarni alohida bo‘laklar sifatida emas, balki kasbiy yetuklikka olib boruvchi integral sifat sifatida talqin etadi. Natijada bo‘lajak tarbiyachi nafaqat ta’limiy vaziyatni tashkil etishni, balki uni ilmiy asosda qurishni, natijani oldindan ko‘rishni va o‘z pedagogik faoliyatini takomillashtirishni o‘rganadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishga doir ko‘plab yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, akmeologik yondashuv ularning ichida ayniqsa samarali metodologik asos sifatida ajralib turadi. Chunki bu yondashuv shaxsiy va kasbiy rivojlanishni bir-biridan ajratmaydi. Maktabgacha ta’lim tizimida muvaffaqiyatli faoliyat yurituvchi tarbiyachi nafaqat metodik jihatdan tayyor, balki yuqori darajadagi kasbiy madaniyat, pedagogik tafakkur, o‘zini boshqarish va o‘zini rivojlantirish salohiyatiga ega bo‘lishi kerak. Akmeologik yondashuv aynan shu sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bo‘lajak tarbiyachining loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda pedagogik amaliyot, muammoli vaziyatlar, refleksiv topshiriqlar va ijodiy loyihalar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki loyihalash qobiliyati faqat bilimni qayta aytish orqali emas, balki real pedagogik vaziyatlarni oldindan modellashtirish va ularni yechishga qaratilgan faoliyat orqali mustahkamlanadi. Shu bois akmeologik yondashuv bo‘lajak tarbiyachining “eng yaxshi kasbiy holat”ga intilish jarayonini ta’lim mazmuni va metodlari bilan birlashtirib beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari pedagogik loyihalash, kasbiy yetuklik, refleksiya, ichki motivatsiya va o‘zini rivojlantirish kategoriyalarining uzviy birligiga tayanadi. Akmeologik yondashuv bo‘lajak tarbiyachini o‘z kasbiy kamolotining faol subyekti sifatida shakllantiradi va uning pedagogik faoliyatni oldindan ko‘ra bilish, maqsadli tashkil etish hamda ijodiy takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa maktabgacha ta’lim

tizimi uchun zamonaviy, moslashuvchan, refleksiv va pedagogik jarayonni puxta loyihalay oladigan mutaxassis tayyorlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Деркач, А. А., Зызыкин, В. Г. Акмеология: учебное пособие. СПб.: Питер, 2003.
2. Маркова, А. К. Психология профессионализма. М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996.
3. Кузьмина, Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. М.: Высшая школа, 1990.
4. Слостенин, В. А., Исаев, И. Ф., Шиянов, Е. Н. Педагогика. М.: Академия, 2002.
5. Хуторской, А. В. Современная дидактика. СПб.: Питер, 2001.
6. Краевский, В. В. Методология педагогики: новый этап. М.: Академия, 2006.
7. Зеер, Э. Ф. Психология профессионального развития. М.: Академия, 2006.
8. Беспалько, В. П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989.
9. Климов, Е. А. Психология профессионального самоопределения. Ростов н/Д: Феникс, 1996.
10. Монахов, В. М. Педагогическое проектирование — современный инструментарий дидактических исследований // Школьные технологии. 2001. № 5. С. 75–89.

**TALABALARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING
METODIK ASOSLARI**

Ergashev Doniyor Dovronovich

“Alfraganus University” Filologiya fakulteti ingliz tili katta o‘qituvchisi, ChDPU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Mazkur tezisda oliy ta’lim jarayonida talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’limda chet tilini bilish faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan emas, balki til birliklaridan kommunikativ vaziyatga mos, mazmunli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda foydalanish bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, lingvistik kompetensiya fonetik, leksik, grammatik va semantik bilimlarning o‘zaro integratsiyasiga tayangan holda shakllanishi lozim. Ishda kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim tamoyillari hamda til faoliyati turlarining o‘zaro aloqadorligi metodik asos sifatida qaraldi. Natijada talabalarining og‘zaki va yozma nutqida aniqlik, mantiqiylik, til me‘yorlariga rioya qilish hamda o‘quv materialini mustaqil qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bosqichli metodik tizim zarurligi asoslandi.

Kalit so‘zlar. lingvistik kompetensiya, metodik asos, kommunikativ yondashuv, til ko‘nikmalari, chet til ta’limi, leksik va grammatik birliklar, oliy ta’lim, o‘quv faoliyati.

Talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi bugungi oliy ta’lim tizimida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki chet tilini o‘qitish jarayonida tilni faqat qoidalar majmui sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish talabi kuchaymoqda. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi dastlab Dell Hymes tomonidan ijtimoiy vaziyatga mos til ishlatish qobiliyati sifatida ilgari surilgan, keyinchalik Canale va Swain tomonidan grammatik, sotsiolingvistik va strategik komponentlar bilan boyitilgan. CEFR ham til o‘rganuvchining bilimini alohida qoida yodlash bilan emas, balki amaliy faoliyatda tilni qo‘llash darajasi bilan tavsiflaydi. Shu bois lingvistik kompetensiya talabaning fonetika, leksika, grammatika va semantika bo‘yicha egallagan bilimlarini bir butun tizimga birlashtiruvchi omil sifatida qaraladi. Oliy ta’limda bu kompetensiyani shakllantirish uchun an‘anaviy izohli usullardan tashqari faol, interaktiv va refleksiv metodlardan foydalanish muhimdir.

Tadqiqotda tahliliy-sintetik yondashuv, kompetensiyaviy tahlil hamda metodik kuzatish usullaridan foydalanildi. Avvalo, lingvistik kompetensiyaning nazariy asoslari chet til o‘qitish